

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zabolotskaya, V.V. (2020). *Government Financial Support and SME Development in Switzerland. International Journal of Economics and Business Administration — Shveysariyada kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash modeli tahlili.*

2. Brühlhart, M., Lalive, R., Lehmann, T., Siegenthaler, M. (2020). *COVID-19 financial support to small businesses in Switzerland: evaluation and outlook. Swiss Journal of Economics and Statistics — Shveysariyada pandemiya sharoitida SME uchun moliyaviy yordamning samaradorligi.*

3. *Bank lending in Switzerland: Driven by business models and exposed to uncertainty. International Review of Financial Analysis (2021) — Bank kreditlash mexanizmlari va model yondashuvlari tahlili.*

4. Akmalova, Z.D. (2025). *Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'llari. IMRAS Journal — Xalqaro moliyaviy instrumentlarni O'zbekiston sharoitida qo'llash strategiyasi.*

5. Radjapov, K., Erkayeva, B. (2024). *Xalqaro globallashuv va institutsional islohotlar sharoitida bank tizimini barqarorligini oshirish mexanizmlari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot — Bank tizimi barqarorligi va institutsional islohotlar yondashuvi.*

6. *Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalalari — O'zbekiston bank tizimi va xalqaro standartlarga moslashuv jarayoni.*

7. *Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari — O'zbekiston iqtisodiyotini investitsiya jalb etish jarayonidagi moliyaviy mexanizmlar.*

KAPITAL BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLARNING ISHTIROKINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Omonov Sardor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar” kafedrasi dotsenti, PhD

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda korporativ tuzilmalarni moliyalashtirishda mamlakatimiz kapital bozorini rivojlantirish hamda mazkur bozorda institutsional investorlar faolligini oshirish qator imkoniyatlar taqdim etadi. Biroq, kapital bozorini rivojlantirish hamda institutsional investorlarning kapital bozoridagi faolligini oshirish bo'yicha qator muammolar mavjud. Kapital bozorining joriy holatini yaxshilashda aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasini oshirish, kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirish orqali keng ko'lamda investorlarni jalb etish zarur. Shu bois quyida institutsional investorlar sifatida sug'urta kompaniyalari va tijorat banklarining kapital bozoridagi faoliyati va mazkur faoliyatni rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

“Toshkent” RFBda bitimlar soni bo‘yicha top-10 listing kompaniyalar aksiyalari ko‘rsatkichlari, 13.02.2026 holatiga⁹³

Kod	Emitent	Valyuta	Nominal qiymati	Bitimlar soni
UZ7011340005	Hamkorbank ATB	UZS	5	5 914
UZ7037560008	O‘zsanoatqurilishbank ATB	UZS	19	5 382
UZ7043200003	O‘zRTXB AJ	UZS	630	4 194
UZ7044760005	Aloqabank AT	UZS	1	4 088
UZ7038380000	Chilonzor buyum savdo kompleksi AJ	UZS	1	4 059
UZ7054570005	Ipoteka-bank ATIB (oddiy)	UZS	1	3 772
UZ7056921008	O‘zbekinvest EISK AJ	UZS	1 000	3 208
UZ7028660007	Kapital sug‘urta AJ	UZS	0.01	2 819
UZ705457K018	Ipoteka-bank ATIB (imtiyozli)	UZS	1	2 543
UZ7021720006	O‘zmetkombinat AJ	UZS	5 000	2 447

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 13-fevral holatiga “Toshkent” Respublika fond birjasida bitimlar soni bo‘yicha eng faol 10 ta listing kompaniya aksiyalari aniqlangan. Hamkorbank ATB aksiyalari 5 914 ta bitim bilan yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lib, bu investorlar tomonidan bank sektoriga yuqori qiziqish mavjudligini ko‘rsatadi. Ikkinchi o‘rinda O‘zsanoatqurilishbank ATB aksiyalari 5 382 ta bitim bilan qayd etilgan. Shuningdek, Aloqabank AT (4 088 ta bitim) aksiyalari ham yuqori savdo faolligini namoyish etgan. Ipoteka-bank ATIB aksiyalari 3 772 ta bitim bilan oltinchi o‘rinda qayd etilgan bo‘lsa, shu bankning imtiyozli aksiyalari 2 543 ta bitim bilan ro‘yxatga kiritilgan. Institusional investorlardan biri sifatida O‘zbekinvest EISK AJ 3 208 ta bitim va Kapital sug‘urta AJ 2 819 ta bitim bilan top-10 talikdan joy olganligini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimiz kapital bozorida institusional investorlar ishtirokiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, institusional investorlar ko‘rsatkichlari kapital bozorida bir qator hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar mavjudligiga ishora qiladi, deyishimiz mumkin. Xususan, “Toshkent” RFB savdo operatsiyalarida institusional investorlar ishtiroki natijalarini o‘rganadigan bo‘lsak, asosiy ishtirokchilar sifatida banklar, sug‘urta kompaniyalari va boshqalar namoyon bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, banklar hamda sug‘urta kompaniyalari boshqa kompaniyalarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan bo‘lsa-da, umumiy holatda mazkur institusional investorlarning fond bozoridagi faolligini yuqori darajada deb baholab bo‘lmaydi. “Toshkent” RFBda bitimlar hajmi asosan banklar, sug‘urta kompaniyalari, jismoniy shaxslar kabilar ishtirokida shakllanmoqda. Banklar tomonidan amalga oshirilgan savdolarida sug‘urta kompaniyalari va boshqa korxonalar ulushi nisbatan yuqori bo‘lib, jismoniy shaxslar ishtiroki cheklanganligicha qolmoqda.

⁹³ https://uzse.uz/executions/top10_listing - “Toshkent” RFB rasmiy sayti ma’lumotlari

“Toshkent” RFBda bitimlar soni bo‘yicha top-10 listing kompaniyalar ko‘rsatkichlari, 13.02.2026 holatiga⁹⁴

Sotuvchi investor turi	Sotib oluvchilar ko‘rsatkichlari (so‘m)		
	Jismoniy shaxs	Sug‘urta kompaniyasi	Boshqa korxonalar
Bank	1 500 154 893,60	5 933 904 825,12	6 535 322 201,50
Mahalliy hokimiyat	—	—	32 607 085 287,92
Jismoniy shaxs	13 485 715 233,79	10 420 000,00	700 631 946,26
Sug‘urta kompaniyasi	1 690 361,89	—	10 159 720 000,00
Boshqa korxonalar	4 836 562 636,24	—	—
Investitsion kompaniyalar	7 159 750,00	—	26 148 000,00
Davlat ulushi mavjud korxonalar	—	1 754 620 000,00	—

Mahalliy hokimiyatning faqatgina boshqa korxonalar bilan yirik hajmdagi bitimlarni amalga oshirishi bozorning muayyan darajada yopiq xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Jismoniy shaxslar faoliyatida asosiy savdolar yana jismoniy shaxslar o‘rtasida amalga oshirilganligi institutsional investorlar bilan aloqalarning sustligini anglatadi. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarining faolligi asosan boshqa korxonalar bilan bitimlar orqali namoyon bo‘lib, bozor diversifikatsiyasi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Mazkur bozorda investitsion kompaniyalar ishtirokining juda past darajada qolishi professional investorlar faolligining yetarli emasligidan dalolat bermoqda.

Xulosa. Kapital bozorida institutsional investorlarning ishtirokini kengaytirish yo‘llarini o‘rganish asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarga e‘tibor qaratish lozim:

Birinchi, O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish va unda institutsional investorlar faolligini oshirish uchun investor yoki moliyaviy vositachi sifatida xorijiy institutsional investorlarni jalb etishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bu orqali xorijiy institutsional investorlar, xususan, chet el banklari va investitsiya vositachilari uchun mahalliy kapital bozorida ishtirok etish uchun sharoit yaratish lozim. Xususan, chet el banklari va investitsiya vositachilariga litsenziya olmasdan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha andarrayting faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etish zarur;

Ikkinchi, mamlakatimiz tijorat banklari tarkibida davlat ulushi mavjud tijorat banklari soni ko‘pligini inobatga olgan holda mazkur banklarning kapital bozoridagi ishtirokini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Xususan, davlat ulushi mavjud tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish zarur. Bu

⁹⁴ <https://www.uzse.uz/abouts/uzstatistics> - “Toshkent” RFB rasmiy sayti ma‘lumotlari

orqali kapital bozorida tijorat banklarining vositachilik faoliyati yo'lga qo'yiladi va institutsional investorlar faolligini oshirish imkoni paydo bo'ladi;

Uchinchidan, tijorat banklarining kapital bozoridagi faoliyatida riskni to'g'ri baholash va kamaytirish maqsadida onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi blokcheyn texnologiyalari, robo-maslahatchilar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi blokcheyn texnologiyalari, robo-maslahatchilar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan nafaqat moliyaviy xizmatlar uchun, balki investitsion xizmatlar uchun ham foydalanish imkoniyati yuzaga kelgan. Tijorat banklarining kapital bozoridagi faoliyatida onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi blokcheyn texnologiyalari, robo-maslahatchilar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida inson omili kamayishi va blokcheyn texnologiyalari qo'llanilishi hisobiga moliyaviy risklarni pasaytirish, operatsion xarajatlarini qisqartirish hamda umumiy moliyaviy natijalarni yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uzse.uz/executions/top10_listing - "Toshkent" RFB rasmiy sayti ma'lumotlari
2. <https://www.uzse.uz/abouts/uzstatistics> - "Toshkent" RFB rasmiy sayti ma'lumotlari

INSTITUTIONAL INVESTORLARNING MAMLAKAT FOND BOZORIDAGI ROLI

Temirova Shirin Shomuxammadovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarining investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, investorlarga daromad olish imkonini yaratadigan fond bozorlari iqtisodiy o'sishning muhim omili sanaladi. Mazkur bozorlarning samarali faoliyat yuritishi ishtirokchilar, xususan, institutsional investorlarning faolligiga bevosita bog'liq. Institutsional investorlar - bu yirik moliyaviy aktivlarni boshqaradigan va uzoq muddatli investitsiyalarga e'tibor qaratadigan tashkilotlar. Ularga pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va rivojlanish banklari kiradi.

Banklar bugungi kunda an'anaviy kreditlash va depozit jalb qilish kabi funksiyalardan tashqari, investitsiya faoliyatining muhim ishtirokchilaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida, rivojlangan